



## **XOJA XURD ALISHER NAVOIYNING USTOZI**

**Fayzullayeva Xursheda**

Registon ansambli gid-ekskursavodi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10097974>

Mamlakatimiz qadim ilm-ma'rifat, madaniyat markazlaridan biri sifatida o'zining shonli tarixiga egadir. Shu sababdan yurtimizdan ko'plab buyuk zotlarning, mutafakkirlarning yetishib chiqqani ham bejiz emas. Sababi yurtimizda qadimdan ilm-fan, madaniyat, ma'naviyatning shakllanishi uchun tarixiy asos mavjud edi. Jumladan, o'quv maskanlari, madrasalarning faoliyati, ulardagi ta'lim tizimi, shakli hamda o'quv jarayoni xususida ham shunday fikr bildirish mumkin. Aynan ushbu dargohlardan dunyo ilm beshigini tebratgan buyuk allomalar, tabib va ulamolar yetishib chiqqanini butun jahon hanuzgacha iftixor va havas bilan ta'kidlaydilar. Bu kabi zabardast va yorqin shaxslardan biri shubhasiz dunyo tafakkuri tarixida o'zining abadiyatga daxldor asarlari va benazir dahosi bilan turkiy xalqlarning ma'naviy siymosini yarata olgan hamda asarlarida tarannum etgan ezgu g'oyalari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelayotgan so'z san'atkori Nizomiddin Mir Alisher Navoiy Hazratlaridir.

Ham adabiy va ilmiy asarlari, ham go'zal insoniy fazilatlarini bilan barchaga o'rnak bo'lib kelayotgan Alisher Navoiyning rang-barang ijodi barcha siyosat rayosatlaridan ustun kelib, Vaqt atalmish oliy hakamni ham o'z izmiga bo'ysundirganligi, dunyodagi eng oliy mo'jiza - So'z qudrati va uning go'zal o'zbekona ifodasi sifatida umumbashariyat mulkiga aylanganligi rad etib bo'lmaz haqiqatlardan hisoblanadi. Shu bois, ma'naviyatning umrboqiy sarchashmalariga doimiy ehtiyoj sezadigan bashariyat farzandlari bugungi kunda ham Navoiyning o'lmas satrlarida tajassum topgan hayotiy hikmatlardan ko'proq bahramand bo'lishga harakat qiladi. Chunonchi olimlar va buyuk shaxslarning muvaffaqiyat qullasiga ko'tarilishiga asosiy sababchi shaxs shubhasiz ustozlardir. Tariqat ahli uni Pir deb atasa, boshqa sohavakillari ustoz yoki muallim deb tilga oladilar. G'azal mulkining podshosi Hazrat Alisher Navoiydek yetuk shaxs kimdan saboq olgani butun dunyoni qiziqtirgan masalalardan hisoblanadi. Albatta Abdurahmon Jomiy bilan bog'langan do'stlik va ustoz-shogirdlik rishtasi tillarda dostonidir, ammo shoirning o'zi ham ta'kidlagan va birnecha asarlarida ustoz deya ishora bergan bir shaxs borki, bugungi kun navoiyshunoslik ilmi vakillari va yosh kitobxonlar davrasiga ham u kishi haqida juda oz ma'lumot yetib kelgan.





Mavlono Xoja Xurd tavalludi haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas, ammo bu borada turli olimlarning qarashlari mavjud. Turli manbalarda jumladan: "...Qosim Shayxning nasab shajarasi, ya'ni farzandlari haqidagi ma'lumotlar kam bo'lib, ayrim o'lkashunoslarning maqolalarida uning bir o'g'il va ikki qizi bo'lganini va o'g'lining ismi Hazrat Xoja Xurd bo'lib, Qosim Shayxning tariqatdagi faoliyatini davom ettirgan deb aytib o'tadi." Lekin "Lamahot" asarida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, Xoja Xurd aslida Hazrat Shayx Xudoydodning Bibi Hadiya ismli qizidan tug'ilgan Hoja Abdulbosit degan o'g'lining farzandi bo'lib, u Hazrat Qosim Shayxning muridi hisoblangan deb keltiriladi.

Anvar Qandaharovning "Buxoro xonligi va unda karmanalik shayxlar faoliyati" nomli asarida ushbu shaxs Buxorolik so'filar va shayxlar shajarasi vakili ekanligi ta'kidlanadi. Jumladan Mavlono Xoja Xurd Alisher Navoiyning "Majolis-un-nafois asarida" keltirilganidek Shayx Xudoydod Valiyning avlodlaridan ekanligi ushbu asarda ham o'z ifodasini topgan. Shayx Xudoydod Valiy shajarasi to'g'risida qo'lyozma manbalarda turlicha ma'lumotlar mavjud. Shayxning qabrtosh yozuvlarida ham o'zidan keyingi farzandlari, nasab shajarasi haqida ma'lumot keltirilgan. Bu qabrtosh yozuvlar tadqiqotchi K.Kattaev tomonidan o'rganilib, ilmiy muomalaga kiritilgan. Shayx Xudoydod Valiyning avlodlari to'g'risidagi ma'lumotlar asosan, Olim Shayxning "Lamahot" asarida kengroq berilgan. Tadqiqot uchun ham asosiy manbalardan biri sifatida ushbu asar o'rganildi. Chunki, Olim Shayx Samarqand madrasalarida dars bergan o'z davrining o'qimishli, olim kishisi bo'lishi bilan bir qatorda, bevosita qarindoshlik aloqasi tufayli Shayx Xudoydod avlodlari tarixini yaxshi bilgan. Shuning uchun "Lamahot" asari Shayx Xudoydod avlodlari to'g'risidagi ishonchli manba hisoblanadi. Ushbu fikrga yana qaramaqarshi shaklda yuqoridagi qarashlarni ya'ni Qosim Shayx Xoja Xurdning ustozlari emas, balki otasi ekanligini bayon etuvchi yana bir manbada shunday keltiriladi<sup>1</sup>:" 1581 yilda Karmana shahrida vabo epidemiyasi boshlanganida, qurbonlar soni ko'p edi. Shuning uchun Qosim Shayx avliyo o'z joninini xatarga qo'yish evaziga qolganlarni saqlab qolishga qaror qildi. U qolganlarni o'ziga yaqinlashtirmadi va faqat Xoja Xurdga ruxtas berdi" albatta bu manbada gap boshqa Xoja Xurd haqida ketayotgan bo'lsa ajab emas, zero Navoiyga ustozlik qilib yana uning vafotidan so'n 80 yil umr ko'rganligiga hejqanday izoh va isbot keltira olmaymiz. Shuning uchun ham u kishining shaxsiyati va yetuk so'filik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

<sup>1</sup> Л.Э. Исмоилов, г. Худжанд, Таджикистан ОЧЕРКИ ИСТОРИИ МАВЕРАННАХРСКОГО СУФИЗМА (XVI В.) (продолжение, начало в № 3(47)-2018 г. JOURNAL IRAN-NAME 214-р





Navoiy hazratlari Samarqandning o'sha davrdagi bosh qozisi, "Ulug'bek Mirzo" madrasasining mudiri Xoja Xurdning faoliyatini yuksak baholab: "U shunday yuksak darajada kamolot va kamolot, aql va ilm bilan go'zal bo'lgan, shuningdek dinga va ibodatga muhabbat, go'zallik boyligi bilan.

Qanchalik ko'p ishlar, soliq yig'ish bilan band bo'lmasin, tabiati ijodga moyil, she'r va xat yozish, tarix, turli fanlar muammolari bilan shug'ullangan".

"Majolisun-nafois"da Xoja Xurd tarixiga bir qancha misollar keltirilgan. Xususan, Samarqandda Bobo Xudoydod ismli folbin vafot etgach, o'z tarixini "Majzubiy solig'i" iborasi bilan boshlagan. Hazrat Alisher Navoiyning "Vaqfiya" asarida "Min Vaqfi Alisher" jumlasidagi "tarix" maqolasi aks ettirilgan. Bu ma'lumotlar Xoja Xurdning so'zni mehr bilan his qiladigan donishmand adiblardan biri bo'lganligini ko'rsatadi.

Alisher Navoiy Fazlulloh Abullaysiy madrasasida tahsil olish bilan birga, Ulug'bek madrasasining mudarrislari Mavlono A'loi Shoshiy, mavlono Olim Samarqandiyardan ta'lim oldi. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asarida Mirzo Ulug'bek madrasasida Mavlono Xoja Xurd mudarrislik qilganligini yozib qoldirilgan. Alisher Navoiy Samarqandda ta'lim olgan yillarda Mirzo Ulug'bek madrasasi mudarrislaridan biri bo'lgan Mavlono Xoja Xurddan ham saboq olgan. Mavlono Xoja Xurd keyinchalik ham shu madrasa mudarrisi sifatida faoliyat olib borgan. Bu haqida Alisher Navoiy o'zining "Majolis unnafois" asarida shunday yozadi: "Xoja Xurd – Samarqand taxtining yaqqalama qozisi va Ulug'bek Mirzo madrasasining mudarrisidir. Bovijudi fazli kamol aql va donish. Xullasi bila orastadur va bovijudi zahdu taqvo husni ahloq zevari bila piyrostadur...Faqirning "Vaqfiya"sining tashehin qilurda "Min vaqf-i Alisher" tarix, topubdur"<sup>2</sup>.

"Majolis un-nafois"da Mirzo Ulug'bek madrasasiga taalluqli qiziqarli yana bir fakt e'tiborimizni o'ziga jalb etdi: Navoiy o'z zamondoshi – Xoja Xurd haqida ma'lumot berarkan, Movarounnahrda Temuriylar mamlakatining bosh qozisi hamda Mirzo Ulug'bek madrasasining mudarrisi ekanini ta'kidlab o'tadi. Ma'lum bo'ladiki, Mirzo Ulug'bek madrasai oliyasi XV asrning oxirida ham mintaqaning eng nufuzli oliy ta'lim dargohi hisoblangan

Ushbu ma'lumotlar va ta'rixiy ma'lumotlardan shuni aytish mumkinki, Mavlono Xoja Xurd Movarounnahrning yetuk olim va tariqat peshvolaridan bo'lib, tafsir ilmida alohida qobiliyat sohibi bo'lgan ekan. Buning yaqqol dalilini yuqorida Alisher Navoiy va Xoja Xurd bilan bir davrda yashagan allomalarning ta'rixiy asarlaridagi bitiklardan ham ilg'ab olish qiyin emas.

<sup>2</sup> Navoiy Alisher. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. 13-tom. Majolis un-nafois. –T.: Fan, 1997.

